

O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANI OBRAZLARIGA TAVSIF

Abdusalomova Sabina

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Usarova Laylo Ibragimovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanibadiiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O' Hoshimov, roman, epigraf, obraz, tugun, konflikt, manqurt.

XX asrning ko'zga ko'ringan adiblari Said Ahmad, G'afur G'ulom, Oybek, Mirkarim Osim, Erkin Vohidov, Pirimqul Qodirov, Shuhrat kabilar qatorida O'tkir Hoshimov ham o'sha davr adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. U ko'plab hikoyalar va romanlar muallifi. "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", " Bahor qaytmaydi", "Tushda kechgan umrlar" kabi romanlari shular jumlasidandir.

"Tushda kechgan umrlar" romani mustaqillikning ilk yillarda yozilgan ya'ni 1991-1992- yillarda. U birinchi marotaba "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan. Ta'kidlab o'tish joizki O'tkir Hoshimov ushbu asarga epigraf qilib: "Vatanim istiqlolga erishmasa bu asar dunyo yuzini ko'rmas edi"- deb yozadi.

Asarning bosh qahramonlaridan biri sifatida Rustam obrazi gavdalanadi. Asar "Rustamning oxirgi kundaligidan" deb nomlanuvchi bo'lim bilan boshlanadi. Asar boshidagi Rustamning o'limi asardagi tugun hisoblanadi. Asarning kulminatsiyasi uning oxirida ro'y beradi.

Asarda har bir qahramon Rustamning o'limida gumon qilinib yoki qotillikni guvohi sifatida tergovga olinadi. Ushbu tergov jarayonlarida qahramonlarning hayoti yorqin ochib beriladi.

Asardagi salbiy qahramon sifatida komissar Soat G'aniyevich gavdalantiriladi. Zeroki komissar Soat G'aniyevich har bir kitobxonning qalbida o'ziga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otadi. U yoshligidan otasining izidan boradi va va sovet hukumatiga sadoqat bilan xizmat qiluvchi komissar bo'lib yetishadi. U shunchaki oddiy komissar emas balki, asli o'zligini yo'qotgan manqurt bo'lib yetishadi.

Bu qahramon 70 yillik sovet hukumatining zulm timsoli hisoblanadi. U umri davomida ko'plab insonlarning nohaq ayblanib, azoblanishlariga sabab bo'ladi. Shular jumlasiga Husan, To'lagan singari tengdoshlarini kiritishimiz mumkin. U hatto yoshligida Qurbanoy xolaning onasining nomusiga tegadi. Lekin u qariganda ham qilgan ishlaridan sira afsuslanmaydi.

Asar qahramoni Rustam talabalik davrlarida ya'ni paxta terimi vaqtida o'z sevgilisini ya'ni rafiqasini, Shaxnozani uchratadi. Asarda Rustam jizzaki, adolatsizlikka chidamsiz kishi sifatida tasvirlanadi. Rustam talabalik yillarda o'qishini to'xtatib, harbiy xizmatga ketadi. O'sha vaqt uni Afg'onistonga urushga yuborishadi. U yerda Temur, Hayriddin kabi o'ziga o'xshagan yigitlarni uchratadi. U urushda ko'plab insonlarning bekordan - bekorga halok bo'layotganlariga o'z ko'zi bilan guvoh bo'ladi. O'zi ham halok bo'lishiga bir bahya qoladi. Tirik qoladi-yu ammo, hayotining mazmunini yo'qotadi.

Said Ahmad bu asar haqida shunday deydi: "Romanni loqayd, hayajonsiz o'qib bo'lmaydi, u kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqani solmagan, qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg'ish yog'diradi"- deb yozadi.[3] Haqiqatdan ham bu asar hayajon bilan o'qiladigan asardir. O'qigan sari voqealar rivoji keskinlashib boradi.

Asar davomida Rustam urush xotiralaridan qutila olmaydi. Sevgan qizi Shaxnozaga uylangan bo'lishiga qaramay ular baxtli hayot kechira olishmaydi.

Ular farzandli bo'la olmaydilar. Buning uchun Rustam o'zini aybdor deb biladi. Ich-ichidan eziladi va bu asarda ichki konfliktni yuzaga keltiradi.

Asarda har bir qahramonning umri tushdagidek, ma'nosiz kechadi. Qurbonoy xola bunga misol bo'la oladi. U umri davomida halovat ko'rmaydi. Yoshligidan hayoti qiyinchilikda o'tadi. Keksayganda ham tinib-tinchimaydi. O'zining sog'lig'iga befarq bo'ladi. Yashashidan birgina ma'nosi turmushidan ajralgan qizi bo'ladi xolos.

Shaxnozachi? Ko'ngil bergen yorini harbiy xizmatdan qaytgunicha kutadi. Turmush quradi. Lekin baxt neligini bilmaydi. Uning umri ham ma'nosiz o'tadi. Asarning so'ngida Rustamning joniga hech kim suiqasd qilmaganligi, javondan kundaligini olayotganda bexosdan pastga tushib ketganligi ma'lum bo'ladi. Bu asarning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda adib ushbu asarda o'sha davrdagi xalqning hayotini yoritgan holda, ular boshidan kechirgan qiyinchiliklarni ham ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'. Hoshimov "Tushda kechgan umrlar". Toshkent. 2024
2. D. Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent. 2004
3. S. Jamolova "Tushda kechgan umrlar" haqida. @mutolaa_sehri. May 26.2020
4. I. Tashmuhammedova "Adabiyot tarixi va nazariyasi" 1-qism. Toshkent. 2020